



TASVIRIY SAN'AT DARSLARIDA O'QUVCHILARNING IJODIY QOBILIYATNI RIVOJLANTIRISH METODIKASI

Olimov Anvarjon Mamirovich

Qo'qon Universiteti, Ta'lim kafedrası o'qituvchisi

[*aolimov321@gmail.com*](mailto:aolimov321@gmail.com)

[*ORCID: 0009-0003-7395-5246*](https://orcid.org/0009-0003-7395-5246)

Rashidova Shohsanamxon Zokirali qizi

Qo'qon universiteti, Boshlang'ich ta'lim

III-bosqich talabasi

Annotatsiya

Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini tasviriy san'at fanida rivojlantirish metodikasi yoritilgan. Unda kichik yoshdagi bolalarning estetik didi, tasavvuri, mustaqil fikrlashi va obrazli tafakkurini shakllantirishda tasviriy san'at mashg'ulotlarining o'rni ko'rsatilgan. Maqolada didaktik o'yinlar, ertak asosida chizish, turli materiallardan foydalanish, guruhiiy ishlar va rag'batlantirish kabi samarali metodlar tahlil qilingan. Shuningdek, o'quvchilarning qiziqishini uyg'otish hamda ijodkorlik muhitini yaratish bo'yicha amaliy tavsiyalar berilgan. Mazkur maqola boshlang'ich sinf o'qituvchilari, metodistlar va san'at ta'limi bilan shug'ullanuvchi pedagoglar uchun foydali bo'lishi mumkin.

Kirish

Boshlang'ich ta'limda tasviriy san'at o'quvchilarining estetik rivojlanishi, ijodiy tafakkuri va tasavvurini shakllantirishda muhim ro'l o'ynaydi. San'at, o'z navbatida, nafaqat rasm chizish san'ati balki bolalarga dunyoqarashni kengaytirishga, o'z fikrlarini erkin ifodalashga yordam beradigan vosita sifatida xizmat qiladi. Maqolaning asosiy maqsadi boshlang'ich ta'limda tasviriy san'atni



o'qitishda o'quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishning samarali metodlarini o'rganishdir.

Kalit so'zlar: o'quvchi, ijodkorlik, tasvir, pedagogik yondashuv, tanqidiy fikrlash, san'at, malaka, estetik, ko'nikma, metod.

Boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun tasviriy jihatdan, balki psixologik va kognitiv rivojlanish nuqtai nazaridan ham juda muhimdir. Bu nafaqat badiiy ko'nikmalarni rivojlantirish, balki ong ravishda tafakkur qilish, diqqatni jamlash va tasavvur qobiliyatini kuchaytirish imkonini yaratadi.¹ O'quvchilar turli predmetlarni, tabiatni, ijtimoiy, hodisalarni tasvirlash orqali o'z fikrlarini o'ylab topishga va ijodiy yondashuvni amalga oshirishga o'rganadilar.

Ijodkorlikning rivojlanishi bu – tasavvur qilish, yangilik yaratish va yangi g'oyalarni ishlab chiqish qobiliyatidir. O'quvchilar tasvirlarni yaratishda, masalan, tarixiy voqeani yoki kundalik hayotdagi hodisani tasvirlashda, o'zlarining shaxsiy yondashuvlarini ko'rsatadilar. Har bir o'quvchi tasvirni o'zgacha va o'ziga xos tarzda ifodalaydi, bu esa ijodiy faoliyatning natijasi hisoblanadi.

Shuningdek, ijodiy yondashuv o'quvchilarning tanqidiy fikrlashini, hamda ularning kuzatish va tahlil qilish qobiliyatini rivojlantiradi. Ular o'z tasvirlarini chizayotganda har bir detail va unurni o'ylab, uning qanday tasvirlanishini o'zgacha tarzda ifodalashga harakat qiladilar. Bu orqali ular nafaqat badiiy ko'nikmalarini rivojlantiradilar, balki dunyoqarashlarini ham kengaytiradilar.

Pedagogik yondashuvlarga o'quvchilarni tasvirni ijodiy tarzda yaratishga o'rgatishda pedagoqlarning roli muhim sanaladi. Ular tasviriy san'at va ijodiy fikrlashni o'rgatish uchun grupplar va jamoaviy ishlar, tanqidiy fikrlashni rivojlantirish shu bilan birga o'yin va interaktiv metodlarni o'rgatish o'z fikrlarini erkin ifodalashlariga imkon yaratadi.

¹ Tasviriy san'at o'qitish metodikasi. O'quv va metodik qo'llanma. S.S Abdullayev





Grupplar va jamoaviy ishlar – o'quvchilarni jamoaviy ishlar orqali tasvirlarni birgalikda yaratishga jalb qilish, ularning hamkorlik va ijodiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantiradi. Tanqidiy fikrlashni rivojlantirish – o'quvchilarni o'z ishlarini tahlil qilishga o'rgatish, ularning ijodiy va tanqidiy fikrlash qobiliyatini oshiradi. Tasvirni yaratish jarayonida, ular o'z ishlari haqida baho berish va tahlil qilishni o'rganadilar. O'yin va interaktiv metodlar – o'quvchilarning ijodiy yondashuvini rivojlantirish uchun o'yinlar va interaktiv ucun o'yinlar va interaktiv usullardan foydalanish samarali bo'ladi. Bu metodlar o'quvchilarning o'z fikrlarini erkin ifodalashlariga imkon yaratadi.²

Tasvirni ijodiy asosda bajarishga oid malaka – ko'nikmalar.

Bu fan o'quvchilarning tasavvurlarini o'stiradi, ularni o'z ichki dunyosini ifodalashga, boshqa insonlarning fikrlarini va his – tuyg'ularini tushunishga undaydi. Tasviriy san'at orqali bolalar o'z hissiyotlarini, fikrlarini va qiziqishlarini rasm chizish, bo'yash yoki boshqa san'at turlari orqali ifodalash imkoniyatiga ega bo'ladilar.

O'quvchilarning tasvirni ijodiy ravishda yaratish uchun bir qancha malaka – ko'nikmalarga ega bo'lishi kerak. Quyidagi malakalarning o'zlashtirishi tasvirni chizishda yuqori natijalarga erishishda yordam beradi:

Diqqat va kuzatish ko'nikmalari	O'quvchilarning tashqi dunyodagi narsa, voqea va hodisalarni aniq kuzatib, ularni tasvirlashga tayyor bo'lishi kerak. Ularning tasvirni chizish jarayonida har bir detalni eslab qolishlari va unga diqqatni qaratishlari muhimdir.
Kreativ fikrlash	O'quvchilar tasvirni chizishda har bir voqea va hodisani o'ziga xos tarzda ko'rsatishga harakat qilishlari zarur. Bu ularning kretaiv fikrlashini rivojlantiradi.

² Rassomning yo'li kitobi. J. Kameron. Tarjimon: D. Siromaxa



Ranglar va shakllarni ishlatish ko'nikmalari	Rang va shakllarni to'g'ri ishlatish, tasvirga jonli va ta'sirchan tus berish uchun zarur. O'quvchilarga ranglar va shakllar o'rtasidagi bogliqlikni tushunish va ularni ijodiy tarzda qo'llashni o'rgatish lozim.
Anatomik va kompozitsion bilimlar	O'quvchilar tasvirlarni chizayotganda, inson yoki ob'ektning anatomiyasi va kompozitsiyasi haqida asosiy bilimlarga ega bo'lishlari zarur. Bu tasvirlarni aniq haqqoniy yaratishda muhim o'rin tutadi.
Tahlil va baholash qobiliyati	O'quvchilar o'z ishlarini tahlil qilish va baholashni o'rganishlari kerak. Tasvirni yaratishda ularning yanada yaxshilashga qobiliyati bo'lishi zarur.

Ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish metodlari



1. Didaktik o'yinlar orqali ijodiy fikrlashni rivojlantirish. Didaktik o'yinlar bolalarning tasavvurlarini kengaytiradi va ijodiy fikrlashni rivojlantirishga yordam beradi. Masalan, "Shakldan rasm yaratish" o'yini bolalar uchun o'zlarining ijodiy tasavvurlarini yaratish uchun ajoyib imkoniyatdir. Ushbu o'yinda o'quvchilarga oddiy shakllar (to'rtburchak, uchburchak, dumaloq) beriladi va ular shu shakllardan rasm yaratishlari kerak bo'ladi. Ranglar bilan tajriba qilish. Boshlang'ich sinfda ranglarning ahamiyati katta, ranglar bolalar psixologiyasida kuchli ta'sir ko'rsatadi. Shu bilan birga ularning kayfiyatini o'zgartirishi mumkin. Ranglar orqali bolalarga turli hissiyotlarni ifodalashni o'rgatish, ularni ranglar baxtni ifodalaydi?" degan savolni o'quvchilarga berib, ular o'zlarining ranglar yordamida baxtli obraz yaratishlari so'raladi. Ertak asosida rasm chizish. Ertaklar o'quvchilarning tasavvurini rivojlantiradi va ijodiy





fikrlashni oshiradi. O'quvchilarga biron -bir ertakni eslab, o'z tasavvurlariga asoslanib, bu ertak asosida rasm chizish topshirig'i beriladi. Bu metod bolalar tasavvurini jonlantiradi va ularning ijodiy yondashuvini o'sishga yordam beradi. Turli materiallar bilan ishlash. Turli materiallar (ko'mir, bo'yoqlar, guash, kollaj) bilan ishlash bolalar uchun yangi tajriba bo'ladi va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantiradi. Masalan, o'quvchilarga ko'mir yordamida ko'rishning muhim aspektlari va chizish texnikalari haqida ma'lumot berish, ularni yangi materiallarga qiziqtiradi. Guruh ishlarida ijodiy fikrni rivojlantrish. Boshlang'ich ta'limda guruh bo'lib ishlash o'quvchilarga hamkorlikni, fikr almashishni, birgalikda ijod qilishni o'rgatadi. Guruhlar o'rtasida rasm chizish, kompozitsiya yaratish, birgalikda ishlash orqali o'quvchilar o'zaro tajriba almashadilar va san'atga bo'lgan qiziqishlarini yanada oshiradilar. Ko'rgazma va rag'batlantirish. O'quvchilarni rag'banlantirish ijodiy rivojlanishda muhim o'rin tutadi. Har oyda tashkil etiladigan jo'rgazmalar, eng yaxshi ishlarni taqdirlash o'quvchilarning o'z ishlariga nisbatan g'ururini oshiradi va ularning ijodiy rivojlanishiga yangi ruh bag'ishlaydi.

1. Kuzatish va tahlil qilish ko'nikmalari:

- Narsa, voqea yoki hodisani diqqat bilan kuzatib, asosiy belgilarini ajrata oladi.
- Muhim tafsilotlarni farqlab olish va ularni eslab qolish qobiliyatiga ega bo'ladi.

2. Kuzatish va tahlil qilish ko'nikmalari

- Kuzatilgan narsa yoki voqeani rasm, gragik, shakl yoki boshqa tasviriy vositalar orqali ifodalay oladi.
- Rang, shakl, nisbat va kompozitsiya elementlaridan foydalana oladi.

3. Ijodiy yondashuv:

- Bor hodisa yoki narsani nafaqat haqiqatga yaqin tarzda, balki o'z tasavvuri va fikriga ko'ra qayta yarata oladi.
- Fantaziya va obrazli fikrlash asosida yangi g'oyalar ishkab chiqadi



4. Texnik ko'nikmalar:

- Chizmachilik, bo'yoq ishlari yoki grafik tasvirlar yaratishda kerakli asbob – uskunalardan to'g'ri foydalana oladi.
- Chizish texnikalarini (soya berish, proporsiyalarni saqlash, tafsilotlarni ifodalash) egallaydi.

5. Estetik did va tanqidiy fikrlash:

- O'z ishi va boshqalar ishi haqida tanqidiy fikr bildiradi.
- Go'zallik, uyg'unlik va mazmunni his eta oladi.³

Rasm chizishdagi malaka va ko'nikmalarni muntazam mashq qilish orqali yaxshilash mumkin. Har bir yangi chizma bilan yangi tajriba orttirish va o'z xatolaringizdan saboq olish juda muhim. Rasmda shaxsiy yondashuvni va hissiyotni ifodalash muhimdir. Buni rivojlantirish uchun tajriba va o'z uslubini yaratish zarur. Ranglarning bir – biriga ta'sirni va yorug'likning pob'ektlarga tushishini to'g'ri anglash rasmga jonlilik qo'shadi. Yaxshi rasm chizish uchun nurlar va soyalarning qanday ishlashini tushunish zarur. Bu, rasmga hajm va chuqurlik qo'shadi. Chizmaga realistik va izchil tafsilotlar qo'shish, ob'ektning strukturasini aniq tasvirlashga yordam beradi. Rasmda yuzaning tuzilishini (masalan, yog'och, tosh, shisha) tasvirlash ko'nikmalarini rivojlantirish zarur. Turli materiallar bilan ishlash masalan karandosh, akvarel, moyli bo'yoqlar kabi turli materiallar bilan ishlashni o'rganish, san'atingizni boyitadi. Asosiy shakllar va tuzilmalar masalan rasm chizishda eng avvalo oddiy shakllar (kvadrat, doira, uchburchak) va tuzilmalarni o'rganish kerak. Bu shakllar asosida murakkab ob'ektlarni yaratish osonlashadi. Proportsiya va kompozitsiya ob'ektlar orasida nisbati va joylashuvi muhimdir. Yaxshi kompozitsiya – rasmni vizual jozibador qiladi. Nurlar va soyalar – yaxshi rasm chizish uchun nurlar va soyalarning qanday ishlashini tushunish zarur. Bu rasmga hajm va chuqurlik qo'shadi. Chizmaga realistik va izchil tafsilotlar qo'shish, ob'ektning strukturasini aniq tasvirlashga yordam beradi. Tasviriy san'atda malaka – ko'nikmalarni



rivojlantirish uchun bir nechta asosiy omillar mavjud. Rasm chizish jarayoni vaqt, sabr – toqat, va izchillikni talab qiladi.



Dars jarayonida

O'quvchilarni ijodkorlik asosida rasm chizishga o'rgatish, nafaqat san'atni o'rganish, balki ularning ijodiy fikrlash va tasavvur qilish qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam beradi. Rasm chizish jarayoni, o'quvchilarga tasviriy san'atni chuqurroq tushunishga, materiallar bilan ishlashda yangi usullarni o'rganishga va o'z fikrlarini estetik jihatdan ifodalashda yordam beradi.

Ko'rish va tafsiflash qobiliyati – bu o'quvchilarni chizishni boshlashdan oldin, ular atrof – muhitni, shakllarni, ranglarni va o'lchamlarni to'g'ri ko'rishga o'rgatish zarur. Ko'pincha, rasm chizish uchun aniq ko'rish va tafsiflash qobiliyati muhim sanaladi. Bu malaka o'quvchilarni detallarga e'tibor qaratishga undaydi. Qog'oz va materiallardan foydalanish: O'quvchilarni turli materiallar (rangli qalamlar, akvarel, guash, moyli bo'yoqlar va boshqalar) bilan tanishtirish ularning ijodiy imkoniyatlarini kengaytiradi. Har bir materialning o'ziga xos xususiyatlarini tushunish ulardan samarali foydalanish muhim ko'nikma hisoblanadi. O'quvchilarni ijodiy yondashuvda o'ylashga undash, ular rasmlarda o'z tasavvurlarini erkin ifodalashga yordam beradi. Bu, o'quvchilarga o'zini boshqa ko'rinishda ifodalash imkonini yaratadi. O'quvchilarni turli usullarni, texnikalarni va uslublarni birlashtirishga o'rgatish, ular uchun yangi ijodiy



imkoniyatlar yaratadi. Masalan, akvarelni Qalam bilan birgalikda ishlatish orqali original natijalarga erishish mumkin. Ijodiy faoliyatni amalaga oshirish orqali o'quvchilar o'zlarining ishlari natijalarini baholash va ulardan mamnun bo'lishni o'rganadilar. Bu ularning o'ziga bo'lgan ishonchni oshiradi. Shu bilan birga kelajakdagi ijodiy ishlarda yanada muvaffaqiyatli bo'lishlariga yordam beradi. Rasm chizish orqali o'quvchilar o'z ishlarini tahlil qilish va ularni yaxshilash yo'llarini izlashga o'rganadilar. Tanqidiy fikrlash ularni yanada mukammal ishlarga erishishga undaydi. Shunday qilib, o'quvchilarni rasm chizishga o'rgatish nafaqat san'atni o'rgatish, balki ular uchun ijodiy, fikrlash va tahlil qilish ko'nikmalarini rivojlantirishga ham katta imkoniyat yaratadi. Rasm chizish o'quvchilarning tasavvuri va xayolotini rivojlantirishga katta yordam beradi. O'quvchilarni hayotdagi oddiy voqealar va tasvirlarni turli usullar bilan chizishga rag'batlantirish, ularning ijodiy fikrlashini kuchaytiradi. Bu, ularning nafaqat san'atda balki kundalik hayotda ham ijodiy yondashuvni qo'llashlariga yordam beradi. Rasm chizish texnikasi haqida chuqur bilimlar o'quvchilarning ustozlari bilan to'g'ri ishlashga imkon yaratadi. Turli bo'yoqlar, materiallar va usullarni o'rgatish orqali o'quvchilar o'zlarining ijodiy imkoniyatlarini kengaytiradilar. Ko'plab san'atlardan farqli o'laroq, rasmda texnikani rivojlantirish san'ati mustahkam poydevor yaratadi. Rasm chizishda o'quvchilar bir-birlari bilan o'z ishlarini taqqoslab, o'zaro fikr almashishadi. Bu jarayon ularga o'zlarining ijodiy yondashuvlarini yaxshilashda yordam beradilar va san'atdagi hamkorlik ruhini shakllantiradi.³

Bundan tashqari, o'quvchilarni san'at asarlarini muhokama qilishga, turli uslub va uslublarini tahlil qilishga o'rgatish ularning tasavvurlarini kengaytiradi. Rasm chizishda o'quvchilarga o'z ishlarini baholash, ularni tahlil qilish va yaxshilash imkoniyatini berish, ularning ijodiy o'ziga bo'lgan ishonchlarini oshiradi. O'quvchilar o'z ishlarini oshiradi. O'quvchilar o'z ishlariga bo'lgan

³ Ta'sviriy san'at o'qitish metodologiyasi. O'quv qo'llanma



ishonchni orttirgan sari, ular murakkabroq va yanada jozibali asarlar yaratishga intiladilar.

Xulosa

Boshlang'ich ta'limda tasviriy san'at orqali o'quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish uchun turli metodlar va yondashuvlarni qo'llash zarur. Didaktik o'yinlar, ranglar bilan ishlash, turli materiallardan va guruh bo'lib ishlash bolalar uchun san'atni o'rganish jarayonini qiziqarli va samarali qiladi. San'at mashg'ulotlari nafaqat bolalarning estetik dunyosini shakllantiradi, balki ularning ijodiy tafakkurini rivojlantirib, o'z hissiyotlarini erkin ifodalashga imkon yaratadi. Ushbu maqola boshlang'ich ta'lim o'qituvchilari, san'at pedagoglari va metodistlar uchun yo'rqinomadir. San'at orqali bolalarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga doir amaliy metodlar va tavsiyalar ushnu sohada samarali iashlashni ta'minlaydi.

Foydanilgan adabiyotlar

1. Tasviriy san'at o'qitish metodologiyasi. O'quv va uslubiy qo'llanmalar, S.R.Qobilov. 2014-yil. ISBN raqami: 978-9943-4493-1-2
2. Rassomning yo'li kitobi. J. Kameron. Tarjimon: D.Siromaxa. 2017-yil
3. Tasviriy san'at o'qitish metodikasi. O'quv metodik qo'llanmalar, Darslik, Rassomlik, San'at. S.S.Abdullayev.
4. Mamirovich,O.A. (2025). TASVIRIY SAN'AT DARSLARIDA ARALASH TA'LIM TEXNOLOGIYASINI QO'LLASH ORQALI O'QUVCHILARNING IJODIY QOBILYATLARINI RIVOJLANTIRISH. Multidisciplinary Journal of Science and Technology, 5(5), 1127-1131